

IMOM BUXTORIYNING “AL-JOME AS-SAHIH” ASARI IJTIMOIY ONGNI SHAKLANTIRISHDAGI SOTSIAL INSTITUT SIFATIDA

Abduhakimova Ruxshona Hoshim qizi

Alisher Navoiy Nomidagi O`zbek tili va Adabiyot universiteti 1-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1111523>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Imom buxtoriyning (Al-Jome As-Sahih) asarining ijtimoiy ongi shaklantirishi sotsiol institut sifatida o`rni, bugungi kundagi ahamiyati, insonlarning hadisga bo`lgan qiziqishlari ko`rsatiladi. O`zbekistonda so`ngi yillarda hadis ilmini rivojlantirish va Imom Buxoriyning hayotini o`rganishga qilingan tadqiqotlar yoritiladi.

Hadislarni tushunishdagi tafovutli holatlar keltiriladi. Imom al-Buxoriyning asarlarini bugungi kunda dolzarbli va Al jome as-sahih asarini o`rganish uchun qilingan tadqiqotlar yoritiladi.

Kalit so`zlar; hadis, sahih, roviy, muhhaddis, Sahibi-Buxoriy, fiqh.

IMAM BUKHARI'S WORK "AL-JAMEH AS-SAHIH" AS A SOCIAL INSTITUTION IN THE FORMATION OF SOCIAL CONSCIOUSNESS

Abstract. In this article, the role of the work of Imam Bukhari (Al-Jome Al-Sahih) as a social institution, its significance today, and people's interest in hadith are shown. In recent years, the development of the science of hadith and the study of Imam Bukhari's life will be highlighted in Uzbekistan. Differences in the understanding of hadiths are presented. The relevance of Imam al-Bukhari's works today and the research done to study Al-Jameh al-Sahih will be covered.

Key words: hadith, sahih, roviy, muhhaddis, Sahibi-Bukhari, fiqh.

ПРОИЗВЕДЕНИЕ ИМАМА БУХАРИ «АЛЬ-ДЖАМЕ АС-САХИХ» КАК СОЦИАЛЬНЫЙ ИНСТИТУТ В ФОРМИРОВАНИИ ОБЩЕСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ

Аннотация. В данной статье показаны роль творчества Имама Бухари (Аль-Джоме Ас-Сахих) как социального института, его значение в наши дни, интерес людей к хадисам. В последние годы будут освещены исследования по развитию хадисоведения и изучению жизни имама Бухари. Представлены различия в понимании хадисов. Будет освещена актуальность работ Имама аль-Бухари сегодня и исследования, проведенные для изучения Аль-Джаме ас-Сахих.

Ключевые слова; хадис, сахих, рассказчик, муҳаддис, Сахих-Бухари, юриспруденция.

KIRISH. Imom al-Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy nomi bilan ham tanilgan, taniqli islom olimi va hadis imomi edi. U 810-yilda Buxoroda tug‘ilib, 870-yilda vafot etgan.Imom al-Buxoriyning otasi Ismoil ilmli olim, onasi esa taqvodor va ziyoli ayol bo`lgan.Imom al-Buxoriy yoshligidanoq islom ilmlariga katta qiziqish bildirgan va Muhammad payg'ambarning hadislарини yod olishni boshlagan. Daxiliy, Muhammad ibn Salom Poikandiy, Abdulloh ibn Muhammad Masnadiy kabi taniqli olimlardan tahsil olgan. Imom al-Buxoriy 16 yoshida hadislarni to‘plash va o‘rganish maqsadida Islom xalifaligining turli mintaqalariga sayohatga otlangan. Makka, Madina, Basra, Kufa, Bag‘dod, Suriya, Misr va boshqa ko‘plab shaharlarni kezib, yo‘lda taniqli olimlardan saboq olgan, hadislар to‘plagan.Imom al-Buxoriyning

eng mashhur asari "Al-jome' as-sahih" bo'lib, u Qur'onidan keyin eng ishonchli hadislar to'plamidan biri sifatida tan olingen. Bu jamlanmada 7397 ta hadis mavjud bo'lib, ulardan 2602 tasi noyobdir.

Al-Jome As-Sahih asari hadis asaridir. Al-Buxoriyning asari, hadislar haqida juda keng ma'lumotlar beradi va bu asar, musulmonlar uchun muhim bir manba bo'ladi, Al-Buhoriy xadislarini to'plagan paytda, ulug' muhaddislarning so'zlarini ham eshitgan edi va ularning aytgan hadislarni tekshirib chiqqan edi. Uning asari, Islom dini tarixida ahamiyatga ega bo'lgan asarlardan biri hisoblanadi va musulmonlar uchun amaliy yordamchi bo'ladi.¹

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Asar musulmonlar uchun juda ahamiyatlik bo`lib ,qaysidir ma`noda insonlarni tartibga soladi.Musulmon inson hayoti qandey bulishini bir ko`zgu sifatida ko`raatib beradi.Odob- axloq tomonlama ham tizimlashtiradi.Asarning bugungi kundagi o`rni ;asar hali hamon usha davrdagi kabi dolzarbligini yuqotmagan,bu asardagi hadislarni dasrliklarga kiritilganligi,yoshi ulug` zotlarning bu hadilarni ko`pini bilishi, va hattoki yosh muslima qizlarimizda hadis haqida tushunchalar borligidan asar hamma davrda kerakli adabiyot sifatida qo`lanishidan dark beradi.

Lekin ko`pchilik yoshlarda shu darslikda berilgan hadislar bilan cheklanib qolish kuzatilmoqda. Bu asarni to`laqonlik o`qib o`rganganlar soni kam. Asardagi hadislarni ko`p qismini yoshlarga o`rgatish singdirish uchun har bir adabiyot (5-11)darsliklariga kiritish,(yoshlarni hadisga bo`lgan qiziqishini oshirish uchun hadisshunos yosh olimlarimiz)kabi ko`rsatuvalar qilish lozim

Hadis-so'zlashuv va xabar berish ma'nosida kelgan naqlning (bayon va ifodaning) nomidir. Keyin payg'ambar (s.a.v.) so'zları yoki fe'llari yoxud taqrirlari (biror masaladagi to'xtamlari) hadis deyilgan, ayrim olimlar, "hadis" tushunchasida "yangilik" degan ma'no bor deb, bu so'zni "qadim" so'zining muqobili sifatida qo'llashgan. "Qadim" deganda Alloh taoloning Kitobi Qur'oni karimni, "hadis" deganda esa payg'ambar (s.a.v) ning so'zlarini nazarda tutishgan.

Shu sababli ulamolarning ko`pchiligi Alloh taolining kalomini hadis deb atashdan saqlanganlar.²

O'zbekistonda hadis ilmini rivojlantirish uchun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-son Farmoni ijrosini ta'minlash, islam dini va hadis ilmi rivojiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk vatandoshlarimizning boy merosini chuqur o'rganish, ular tomonidan asos solingan hadis ilmi maktablari faoliyatini qayta tiklash va rivojlantirish hamda islam dini asoslari va hadis ilmini mukammal o'zlashtirgan oliy ma'lumotli yetuk mutaxassislarini tayyorlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-son Farmoni bilan oliy diniy-ma'rifiy ta'lim muassasasi shaklidagi

Hadis ilmi maktabi (keyingi o'rnlarda Maktab deb ataladi) tashkil etilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

¹ <https://bilimlar.uz/imom-al-buxoriy-haqida-hayoti-va-ijodi>

² HADISLARNING O'RNI VA AHAMIYATI - Termiziy

2. Belgilab qo‘yilsinki:Maktab O‘zbekiston musulmonlari idorasiga muassisligidagi oliy diniy ta’lim beruvchi nodavlat ta’lim muassasasi hisoblanadi;Maktab bitiruvchilariga beriladigan davlat namunasidagi diplom O‘zbekiston Respublikasida oliy diniy ta’lim sohasidagi tegishli mutaxassisliklar bo‘yicha bakalavr darajasini beruvchi oliy ma’lumot to‘g‘risidagi hujjat deb e’tirof etiladi.

3. Quyidagilar Maktabning asosiy vazifalari etib belgilangani inobatga olinsin:Qur’oni karim va hadislarning asl mohiyatini, hadis ilmining ilmiy-nazariy asoslarini chuqr o‘rgangan, hadis ilmi rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan ulug‘ vatandoshlarimizning ulkan ilmiy merosini puxta o‘zlashtirgan, hadisshunoslik sohasida ilmiy izlanishlar olib borish ko‘nikmasiga ega mutaxassislarni tayyorlash;hadisshunoslik maktabi shakllanishi va rivojlanishi, uning ilmiy-ma’naviy asoslarini har tomonlama chuqr o‘rganish, tadqiq etish va uning natijalari asosida hadislardagi ezgu umuminsoniy g‘oyalarni xalqimizga, ayniqsa, yosh avlodga yetkazish.¹

4. Quyidagilar:Maktabda o‘qish muddati besh yil ekanligi, u kunduzgi ta’lim shaklida olib borilishi;Maktabda “Hadisshunoslik” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasidagi kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yilishi;Maktabga 2018/2019 o‘quv yili uchun qabul kvotasi jami 10 ta o‘rin etib va keyingi yillar uchun qabul kvotasini shakllantirish ushbu sohadagi talab hamda ehtiyojdan kelib chiqqan holda Maktab muassisini tomonidan belgilanishi;Maktabga arab tilini puxta o‘zlashtirgan, hadislarni yod olishga salohiyati bo‘lgan o‘rtacha maxsus diniy ta’lim muassasalarining iqtidorli bitiruvchilari saralab olinishi;Maktab bitiruvchisi ta’limni o‘z ixtisosligiga ko‘ra O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi magistraturasida davom ettirishi, tayanch doktorantura va doktorantura bosqichlarida tahsil olishi inobatga olinsin.

5. O‘zbekiston musulmonlari idorasiga:bir oy muddatda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasi bilan birgalikda belgilangan tartibda Maktabning tuzilmasi va ustavini tasdiqlash va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish;Maktab faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish maqsadida ilmiy-pedagog kadrlar tarkibini respublika oliy ta’lim va ilmiytadqiqot muassasalarida hamda O‘zbekiston musulmonlari idorasiga tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan mutaxassislardan shakllantirish, shu jumladan, Maktabga xorijiy ta’lim (ilmiy) muassasalarida malakasini oshirib kelgan, yuqori saviyali professor-o‘qituvchilar va ilmiy xodimlar, sohaning salohiyatlari, yetuk mutaxassislarini jalb etish choralarini ko‘rish;Oldingi tahririga qarang.

O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasi Tashqi ishlarni vazirligi bilan birgalikda Maktab bilan xorijiy mamlakatlarning nufuzli ilmiy va ta’lim muassasalarini o‘rtasida hamkorlik aloqalarini o‘rnatish, xorijlik professor-o‘qituvchilarni Maktabga jalb qilish;(5-bandning to‘rtinchchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 8-maydagagi 193-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 08.05.2023-y., 09/23/193/0260-son³

NATIJALAR.Bu islohatlar O‘zbekistonda yoshlarni hadisga qiziqishini kuchaytirish hamda Davlatimizda hadis ilmini rivojlantirish uchun ham muhim ro‘l o‘ynamoqda . Islohatlarni esa o‘z navbatida hadisshunos yosh olimlarimizni yetishib chiqishi uchun ham muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Buni rivojlantirish esa buyuk hadis ilmini o‘rgangan olimlarning asarlarini qaysidir ma’noda chuqr o‘rganish uchun ham sabab bo‘ladi. Buxoriy hayotini o‘rganishga bir necha

³ <https://lex.uz>

tadqiqotlar olib borilgan; uning hayoti, oilasi, ijodi, qandey sharoitda yashagani, u haqida aytilgan rivoyatlar va hikoyalarni o'rganishgan, qaysi o'lkalarga sayohat qilgani, qayerlarda tahsil olganini o'rgangan. Ularning tadqiqotlarining asl markazidan esa Sahih-Buxoriyning toplashda foydalanilgan metodologiyasini va jarayoni anglashga qaratilgan edi

MUHOKAMA.Imom al-Buxoriy asarlari bugungi dunyoda juda katta ahamiyatga ega.

Uning “Sahih al-Buxoriy” nomi bilan mashhur bo'lgan hadislar to'plami islom ilmining eng sahif va ishonchli manbalaridan biri hisoblanadi. U hayotning turli jahbalarida, jumladan, ma'naviyat, odob- axloq, va huquqshunoslik bo'yicha ko'rsatmalar beradi. Hozirgi tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan dunyoda Imom al-Buxoriy asarlari islomiy tamoyillarga asoslangan holda zamonaviy hayotning murakkabliklarida qanday harakat qilish bo'yicha yo'l-yo'riqlar berib, abadiy hikmat manbai bo'lib xizmat qiladi. Uning hadislarning to'g'riligini tekshirishdagi sinchkovlik bilan sa'y-harakatlari musulmonlarning Muhammad payg'ambar (s.a.v.) va u zotning sahobalarining ishonchli ta'limotlaridan foydalanishini ta'minlaydi. Imom al-Buxoriy asarlari ham musulmonlar o'rtasida birdamlik va hamjihatlikni targ'ib qilishda hal qiluvchi o'rinn tutadi. Ular turli diniy masalalar bo'yicha konsensus o'rnatishga yordam berib, imonlilar o'rtasida hamjihatlik hissini uyg'otadigan umumiylar ma'lumot nuqtasi bo'lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, Imom al-Buxoriy asarlari bugungi jamiyatda muhim o'rinn tutib, islom ilmiga asos bo'lib, shaxslarning ma'naviy yo'lida yo'l-yo'riq ko'rsatib, sahif islom ta'limotlarini saqlash va tarqatishda ko'maklashmoqda. O'zbekistonda hadis ilmini targ'ib qilish va rivojlantirish borasida salmoqli ishlar amalgalashirildi. Mamlakat boy islomiy merosga ega va olimlar va muassasalar bu sohani rivojlantirish uchun turli tashabbuslarni amalgalashirildi.

Quyidagilar diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirishning ustuvor yo'naliishlari etib belgilansin:

“jaholatga qarshi ma'rifikat” ulug'vor g'oya asosida dinning asl insonparvarlik mohiyatini, ezhulik, tinchlik va insoniylik kabi fazilatlar azaliy qadriyatlarimiz ifodasi ekanligini keng yoritish va bu sohadagi ilmiy-ma'rifiy faoliyatni jadal tashkil etish; islom va jahon sivilizatsiyasiga bebafo hissa qo'shgan ajodolarimizning boy madaniy merosini chuqr o'rganish asosida yoshlarning ongu tafakkurini shakllantirish; dinni zo'ravonlik va qon to'kish bilan bir qatorga qo'yadigan buzzg'unchi yot g'oyalarning asl mohiyati va maqsadlari haqida aholining, ayniqsa, yoshlarning xabardorlik darajasini oshirish; jamiyatda milliy va diniy qadriyatlarimizga yot bo'lgan g'oyalarga nisbatan toqatsizlik muhitini shakllantirish; jamiyatda bag'rikenglik, o'zaro hurmat, mehr-oqibat, tinchlik va totuvlikni, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashda diniy-ma'rifiy soha vakillarining daxldorlik hissi va ishtirokini yanada oshirish; diniy-ma'rifiy tashkilotlarning moddiy-texnika ta'minotini mustahkamlash, soha vakillari mehnatini munosib rag'batlantirish va ijtimoiy himoyasini kuchaytirish; globallashuv sharoitida jamiyatimizdagi ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligi va e'tiqod erkinligiga tahdid tug'dirishi mumkin bo'lgan omillarni barvaqt aniqlash va oldini olishga qaratilgan axborot-tahliliy faoliyatni kuchaytirish; diniy va dunyoviy bilimlar uyg'unligini rivojlantirish asosida ta'lim sifatini oshirish, diniy-ma'rifiy sohada malakali kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning yaxlit tizimini yaratish.

Hadis ilmi maktabini tashkil etish to'g'risidagi taklifi qabul qilinsin. Qur'on karim va hadislarning asl mohiyatini, hadis ilmining ilmiy-nazariy asoslarini chuqr o'rgangan, hadis ilmi

rivojiga beqiyos hissa qo'shgan ulug' vatandoshlarimizning ulkan ilmiy merosini puxta o'zlashtirgan, hadisshunoslik sohasida ilmiy izlanishlar olib borish ko'nikmasiga ega mutaxassislarni tayyorlash hamda hadislardagi ezgu umuminsoniy g'oyalarni xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodga yetkazish Hadis ilmi maktabining asosiy vazifalari etib belgilangani inobatga olinsin. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda Hadis ilmi maktabi faoliyatini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi qarorni qabul qilsin.⁴

O'zbekistonda hadis ilmini rivojlantirish borasida amalga oshirilgan e'tiborga moyil ishlar qatoriga quyidagilar kiradi: 1. Tadqiqotlar va nashrlar: O'zbekiston olimlari hadis adabiyoti bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar olib borib, hadislarni tasniflash, sharplash va ishonchligini aniqlashga e'tibor qaratdilar. Ular hadis ilmini o'rganishga hissa qo'shish maqsadida ko'plab nashrlar, jumladan, kitoblar va ilmiy maqolalar chop etishgan. 2. Ta'lim dasturlari: O'zbekistonda hadis ilmi bo'yicha ixtisoslashtirilgan dasturlarni taklif qiluvchi islomiy ta'lim muassasalari tashkil etilgan. Bu muassasalar talabalarga keng qamrovli kurslar va treninglar o'tkazib, ularga hadis adabiyotini tahlil qilish va sharplash bo'yicha mutaxassis bo'lish imkonini beradi. 3. Tarjima loyihalari: Muhim Hadis to'plamlarini o'zbek tiliga tarjima qilish, ularni mahalliy aholi uchun qulayroq qilish bo'yicha ishlar qilindi. Bu hadis ta'limotlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi va yoshlarni ushbu mavzu bilan shug'ullanishga undaydi. 4. Ilmiy konferensiyalar va seminarlar: O'zbekistonda hadis ilmiga bag'ishlangan konferensiya va seminarlar o'tkazilib, ular turli mamlakatlardan kelgan ulamolarni birlashtirib, fikr va tadqiqot natijalari almashish uchun zamin yaratadi. Ushbu tadbirlar ilmiy nutqqa hissa qo'shadi va sohada hamkorlikni rag'batlantiradi. 5. Ommaviy xabardorlik va targ'ibot ishlari: Hadis ilmining ahamiyati haqida aholining xabardorligini oshirishga harakat qilindi. Islomiy tashkilotlar va muassasalar aholi, ayniqsa, yoshlarni Hadislarning islom e'tiqodi va urf-odatlarini shakllantirishdagi o'rni haqida ma'lumot berish maqsadida ommaviy ma'ruzalar, seminarlar va seminarlar tashkil etadi.

O'zbekistonda bu tashbbuslar hadis ilmini rivojlantirish va islom an'analarini asrab-avaylashga sodiqlikdan dalolat beradi. Al-Jomi' as-Sahih (Sahih al-Buxoriy)ni o'rgangan olimlar Imom al-Buxoriy o'zining hadislar to'plamini tuzishda foydalangan turli manbalarni aniqladilar.

Imom al-Buxoriyning hadislarni tanlash va tekshirishdagi uslubi juda puxta bo'lib, u o'z to'plamidagi rivoyatlarning to'g'ri va ishonchligini ta'minlash uchun bir qancha mezonlarni hisobga olgan. "Al-Jomi' as-sahih" (odatda "Sahihi Buxoriy" nomi bilan mashhur)ni o'rganish islomshunoslikning muhim tadqiqot yo'nalishi hisoblanadi. Bu kitob eng sahif va ko'pchilik tomonidan qabul qilingan hadislar to'plamidir (Muhammad sollallohu alayhi vasallamning so'zları va amallari).

Ko'plab olimlar "Sahihi Buxoriy"da turli jihatlarga e'tibor qaratgan holda tadqiqot olib borishgan. Ba'zi umumiy o'rganish yo'nalishlari quyidagilardan iborat: Sahihlik va jamlash:

Olimlar rivoyatlarning sahihligi va Imom Buxoriyning hadislarni to'plash va saralashda qo'llagan uslubini o'rganadilar. Matn tahlili: Olimlar "Sahihi Buxoriy"dagi hadislarning mazmunini tahlil qiladilar, ularni boshqa Hadis to'plamlari bilan solishtiradilar va ularning huquqiy, axloqiy, tarixiy va ilohiy ahamiyatini o'rganadilar. Fiqih ahamiyati: Tadqiqotchilar

⁴ <https://xs.uz/uz/post/ozbekistonda-hadis-ilmi-maktabini-tashkil-etilad>

“Sahihi Buxoriy”dagi hadislarning islom fiqhiga qanday ta’sir qilishini, jumladan, huquqiy hukmlar chiqarish va Payg‘ambar ta’limotlarini tushunishdagi rolini o‘rganadilar. Qiyosiy tadqiqotlar: Olimlar rivoyatlardagi o‘xshashlik, farq va farqlarni aniqlash uchun “Sahihi Buxoriy”ni boshqa mashhur hadis to‘plamlari, masalan, “Sahihi Muslim” yoki boshqa “Sahih” kitoblari bilan solishtiradilar.

Bular “Sahihi Buxoriy”ni o‘rganish bilan bog‘liq tadqiqot yo‘nalishlarining ba’zi namunalari xolos. Olimlar tomonidan olib borilgan ishlar hadis an’anasi, Payg‘ambarimiz hayoti va islom tarixini chuqurroq tushunish va qadrlashga xizmat qiladi.

Ko‘plab olimlar va tadqiqotchilar “Al-Jomi’ as-sahih” (Sahih Buxoriy)ni o‘rganib, tushunishga hissa qo‘shganlar. Imom al-Buxoriyning “Al-Jomi’ as-Sahih” kitobiga mashhur olimlar tomonidan yuzdan ziyod sharh va xoshiyalar bitilgan. Jumladan, “Fathul-Boriy”, “Al-Kavkab ad-Daroriy”, “Irshodus-Sariy”, “Umdat al-Qoriy”, “Fayzul Boriy” va boshqa ko‘plab sharhlarni misol qilib keltirish mumkin. Bundan tashqari, Imom al Buxoriyning “Al-Adab al-Mufrad” (Odob durdonalari), “Birr ul-Volidayn” (Ota-onani hurmat qilish), “At-Tarix al-Kabir” (Katta tarix), “At-Tarix al-Avsat” (O‘rtacha tarix), “At-Tarix as-Sag‘iy” (Kichik tarix), “Al-Jome’ al-Kabir” (Katta hadislar to‘plami), “Kitab al-Ilal” (Nuqsonli hadislar kitobi), “Kitab al-Kunya” (Hadis roviylarining taxalluslari) kabi yigirmadan ortiq asarlarlari mavjud.

Imom Buxoriyning ijodiy merosi o‘zining hajmi, zamonasining diniy va ijtimoiy fanlarini to‘la-to‘kis qamrab olganligi bilan kishini hayratga soladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yilning 14-15 aprel kunlari Samarqand viloyatiga qilgan tashrifi chog‘ida Imom Buxoriy yodgorlik majmui qoshida xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini qurish taklifini bildirib, shunday degan edi: “Buyuk mutafakkir bobomiz, barcha muhaddislar peshvosi Imom Buxoriy mangu qo‘nim topgan ushbu maskanda o‘ziga xos ma’naviy-ruhiy muhit mavjud. Majmuaga ziyoratga kelgan odam bu markazga ham kirib, o‘ziga katta ozuqa olsin, bobolarimiz hikmatlaridan o‘rganib ketsin. Shunda ularning qalbida ulug‘ ajdodlarimiz bilan faxrlanish tuyg‘usi rivoj topadi, ayni paytda shunday buyuk zotlarning avlodni mas’uliyatini his etadi”.⁵

Muhaddis olimlarning hadislarni sahih deb e’tirof etilishida asosan beshta shartlari mavjud bo‘lib, ular quyidagilar:

1.Sahih hadisni rivoyat qilgan roviylarning barchasi sanadning avvalidan oxirigacha ishonchli vaadolatli bo‘lishi. Adolatli kishi shundayki, u taqvoli, adolatli va ko‘rinib turgan harom ishlardan yiroqda bo‘lgan kishidir.

2.Roviyning o‘tkir zehn va mustahkam xotiraga ega bo‘lishi. Ya’ni, eshitgan narsasini yodida saqlashi va keyinchalik uni shundayligicha rivoyat qilishi.

3.Hadisdagi roviylar sanadi uzilmasdan, orqama-orqa kelishi. Ya’ni, rivoyat qilingan hadis Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallamdan to muhaddisgacha bo‘lgan roviylar silsilasi uzilmasligi kerak. Sanadning xalqasidan birorta roviy tushib qolmasligi.

4.Hadis roviylarining qaysi biri ishonchliroq ekanini ajrata bilishi.

5.Hadisni rivoyat qiluvchi yomon illatdan xoli bo‘lishi.⁶

⁵ <https://www.bukhari.uz>

⁶ <https://religions.uz/uz/news/detail?id=501>

XULOSA;

Imom Buxoriy asarlari hamma davrda ham o`z dolzarbligini yo`qotmagan bo`lib, ulardan ayniqsa Sahihi –Buxoriy nomi bilan mashhur bo`lgan asar shu jumladandir. Ushbu asar muslimmon ahli uchun yo`l yo`riq beradigan bir qo`lanma hamdir. Al-jome As-Sahih eng ishonchlik sahib hadislarni o`z ichiga olib bugungi kun yoshlariga eng ishonchlik islom ta`limotini bera oladigan manba bulib xizmat qilmoqda. Hayotning turli jabhalarida, jumladan, ma`naviyat, odob-axloq va huquqshunoslik bo`yicha ko`rsatmalar beradi. Hozirgi tez sur'atlar bilan o`zgarib borayotgan dunyoda Imom al-Buxoriy asarlari islomiy tamoyillarga asoslangan holda zamonaviy hayotning murakkabliklaridan qanday harakat qilish bo'yicha va bu hayotni qanday qilib mazmunli, foydalik o`tkazish mumkinligini o`rgatadi. Abadiy hikmat manbai bo`lib xizmat qiladi. Uning hadislarning to`g`riligini tekshirishdagi sinchkovlik bilan sa'y-harakatlari muslimonlarning Muhammad payg`ambar (s.a.v.) va u zotning sahabalarining ishonchli ta`limotlaridan foydalanishini ta'minlaydi. Imom al-Buxoriy asarlari ham muslimonlar o`rtasida birdamlik va hamjihatlikni targ`ib qilishda hal qiluvchi o`rin tutadi. Ular turli diniy masalalar bo`yicha konsensus o`rnatishga yordam berib, imonlilar o`rtasida hamjihatlik hissini uyg`otadigan umumiylar nuqtasi bo`lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, Imom al-Buxoriy asarlari bugungi jamiyatda muhim o`rin tutib, islom ilmiga asos bo`lib, shaxslarning ma`naviy yo`lida yo`l-yo`riq ko`rsatib, sahib islam ta`limotlarini saqlash va tarqatishda ko`maklashadi. Kitob hadislarni qabul qilish mezonlari, jumladan, bir-biriga shaxsan guvoh bo`lgan roviylar uchun guvohlarning ko`rsatuvi talab qilinishi bilan yuqori baholanadi. Imom al-Buxoriy asarlari hadislarni o`rganish va islam ilmiga katta ta`sir ko`rsatgan.

Uning aniq metodologiyasi va hadislarni qabul qilishdagi qat`iy me'yorlari bo'lajak olimlar uchun mezon bo`lib xizmat qiladi.

REFERENCES

1. <https://bilimlar.uz/imom-al-buxoriy-haqida-hayoti-va-ijodi>
2. Cho`tmatov J. Imom Abu Iso Termiziyyayoti va ijodiy sahifalari. Toshkent: O`zbekiston xalqaro islam akademiyasi nashriyoti.
3. <https://lex.uz>
4. <https://xs.uz/uz/post/ozbekistonda-hadis-ilmi-maktabini-tashkil-etild>
5. <https://www.bukhari.uz>
6. <https://religions.uz/uz/news/detail?id=501>